



The paranormal nature of the story "The Black Book"

Sanobar SAYDAZIMOVA¹

Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2024
Received in revised form
10 August 2024
Accepted 25 August 2024
Available online
25 September 2024

Keywords:

paranormal episodes,
devil,
poetics,
normal,
myth,
telepathy.

ABSTRACT

This article analyzes the paranormal episodes in Nazar Eshonkul's novella 'The Black Book' and their artistic function. The focus is on how these paranormal elements play a significant role in the protagonists' spiritual journeys and inner experiences. Supernatural phenomena in literary thought are examined as part of the process of human spiritual decline and self-realization. The discussion also addresses the symbolic meanings and aesthetic roles of the paranormal episodes, particularly in relation to religious, mythological, and folkloric sources.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss3/S-pp348-352>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

"Qora kitob" qissasining paranormal tabiati

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

paranormal epizodlar,
iblis,
poetika,
normal,
mif,
telepatiya.

Ushbu maqolada Nazar Eshonqulning "Qora kitob" qissasidagi paranormal epizodlar va ularning badiiy vazifasi ilmiy asoslangan holda qayta tahlil qilinadi. Asar qahramonlarining ruhiy izlanishlari va ichki kechinmalarida paranormal epizodlar qanday ahamiyatga ega ekani ko'rib chiqiladi. Badiiy tafakkurdagi g'ayritabiiy hodisalar adabiyotda inson ma'naviy tanazzuli va shaxsiy o'zlikni anglash jarayonining bir qismi sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, diniy, mifologik va folklor manbalari bilan bog'liq bo'lgan paranormal epizodlarning estetik vazifalari va ramziy ma'nolari haqida mulohaza yuritiladi.

¹ Doctoral Candidate, Alisher Navoi' Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Паранормальная природа рассказа "Черная книга"

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

паранормальные эпизоды,
дьявол,
поэтика,
норма,
миф,
телепатия.

В данной статье проводится научный анализ паранормальных эпизодов в повести Назара Эшонкула «Чёрная книга» и их художественной функции. Рассматривается значение паранормальных элементов в духовных исканиях и внутренних переживаниях героев произведения. Сверхъестественные явления в художественном мышлении анализируются как часть процесса духовного упадка человека и осознания им своей сущности. Также обсуждаются эстетические функции и символические значения паранормальных эпизодов, связанных с религиозными, мифологическими и фольклорными источниками.

Jahon va o'zbek adabiyotshunosligida azal-azaldan shakllanib, takomillashib kelayotgan poetik obrazlar va epizodlar mohiyatan o'z tarixiy va haqqoniy ildizlariga ega. Dunyo yaralibdiki, olam va odam, zamon va makon, yer-u osmon aro cheksiz tasavvurlar va sodir bo'ladigan barcha hodisotlar badiiy adabiyotga ko'chgan. Adabiy-tarixiy jarayonda an'anaviy va epizodik obrazlar poetik takomilning asosini tashkil etadi. Ammo poetik tafakkurning muhim bir komponenti sifatida uchraydigan – "paranormal epizodlar" o'z genezisi bilan adabiy janrlar taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Shunga ko'ra badiiy adabiyotdagi "paranormal epizodlar"ning asosi va ilk omillarini belgilashda ilohiy manbalar, mif va folklor namunalari genetik asos bo'lib xizmat qiladi.

Avvalo, "paranormal" so'zining lug'aviy ma'nosiga to'xtalib o'tamiz. "Paranormal" ikki "para" va "normal" so'zlarining birikuvidan paydo bo'lgan. "Para"-yonida, yaqinida, tashqarida ma'nolarini bildirib, baynalmilal, o'zlashma qo'shma so'zlarning birinchi qismi bo'lib, biror narsaning yaqinida, yoki undan chetlashish, uzoqlashish, o'zgarish kabi ma'nolarni bildiradi. "Normal" - umum tomonidan qabul qilingan va tan olingan, hamma uchun majburiy deb hisoblangan, qonun hukmiga kirgan tartib-qoidalardir. "Paranormal" mana shu umumiy tartib-qoidadan chetga chiqish, barcha uchun odatiy hayot tarzidan tashqarida bo'lish, g'aroyib va mahvum hodisotlarning tasviridir. Andrey Yuryevich Dolgix va Anna Pavlovna Koryakinaning hammualliflikda yozilgan "Три взгляда на проблему паранормального" nomli maqolasida paranormal hodisaga quyidagicha izoh beradi. "Paranormal hodisalar misoli sifatida odatda quyidagi "hodisalar" keltiriladi: sezgi organlaridan tashqari qabul qilish (extrasensorik idrok), NLO (noaniq uchuvchi jismlar), Loch-Ness ko'li maxluqi, astrologiya, deja-vu, farishtalar, sharpali uylar, sehrgarlik, levitatsiya, fikrlarni o'qish (telepatiya), narsalarga teginmasdan ta'sir ko'rsatish (telekinez), narsalarning o'z-o'zidan harakatlanishi (poltergeist), kaft chiziqlaridan fol ochish (hiromantiya), qora sehr (ayniqsa vudu), ruhlarning ko'chishi, ruhlar ta'siri, o'simliklar bilan muloqot qilish va hokazolar".[4:27-bet] Yuqoridagi misollar asosan turli tahliliy kuzatishlar va hayotiy asosga ega. Ushbu maqolada paranormal epizodlarning zamonaviy o'zbek adabiyotidagi talqini va badiiy vazifasiga ahamiyat qaratiladi.

Zamonaviy o'zbek nasrida, xususan qissa janrida diniy, mifologik, folklor motivlari bilan realizm sinkretik tarzda gavdalanadi. "Paranormal epizod" badiiy asarlarda qo'llangan uchinchi olam bilan bog'liq bo'lgan noodatiy obrazlar, an'anaviy bo'lib kelgan

voqelikning buzilishi, tutash olamda sodir bo'ladigan hodisa va jarayonlardir. "Paranormal epizodlar"ga jin, ajina dev, alvasti, qorabosti, qora soya, iblis, shayton, oziqchi, ilon-qiz, it-odam, Xizr kabi asarlarda qisman qatnashib, o'ziga xos badiiy vazifa bajaradigan diniy-mifologik obrazlar va g'ayrioddiy hodisotlar kiradi. Aslida barchasining tub ildizlari ilohiy haqiqatlar, mifologik va folklor manbalariga borib taqaladi. Yuqorida sanab o'tilgan obrazlar folklorshunoslik va mifologiyada demonologik personajlar deb yuritilgan. Biz tadqiqot ishimizda faqat obrazlarni emas, balki sujet va noodatiy, mavhum va sirli hodisalar, karomatlarni tahlilga tortamiz va umumiy ma'noda "paranormal epizodlar" istilohini ilmiy atama sifatida ilk bora qo'llaymiz.

O'zbek va jahon adabiyotida har bir badiiy komponentning o'ziga xos ta'rif-u tavsifi, kanonlari, spetsifikasi, genezisi bor. Adabiyotshunos olim Uzoq Jo'raqulov fikri bilan aytganda "Mohiyatan har qanday badiiy-estetik hodisa an'anaviy ya'ni tarixiydir" [1:6-6et]. "Paranormal epizodlar"ning turli talqinlari, sujet liniyalari ilohiy kitoblarda, mifologik-folklor manbalarida, maishiy turmush tarzida poetikaning muhim bo'lagi sifatida uchraydi. Shuningdek, paranormal epizodlar poetik tafakkurning muhim komponenti hisoblanadi, chunki ular adabiy asarlarning sirli, mistik yoki chuqur ramziy ma'nolarini, g'ayrioddiy karomatlarni yaratishga yordam beradi. Paranormal hodisalar, ya'ni ilmiy yoki mantiqiy tushuntirishga ega bo'lmagan, g'ayritabiiy ko'rinadigan voqealar, adabiyotda ko'pincha inson ruhiyati, hissiyoti va ichki olamini aks ettirish uchun ishlatiladi va badiiy asarlarda o'ziga xos vazifa bajaradi.

Paranormal epizodlar poetik tafakkurda kutilmagan va g'ayrioddiy hodisalar orqali o'quvchi yoki tinglovchida chuqur tasavvur va hissiyotlarni kuchaytiradi. Sirli va noodatiy voqealar inson ongida o'ziga xos dahshat, qo'rquv yoki hayrat uyg'otadi, bu esa badiiy asarlarning hissiy kuchini oshiradi. Shuningdek, paranormal epizodlar ko'pincha ramzlar va simvolik ma'nolar yaratadi. Ular inson tabiatining noma'lum yoki yashirin tomonlarini aks ettirish uchun ishlatilishi mumkin. Masalan, ruhlar yoki g'ayritabiiy kuchlar insoniyatning o'lim, hayot va bu dunyodan tashqaridagi tushunchalar bilan bog'liq falsafiy savollarni ko'taradi. Paranormal hodisalar poetik tafakkurda realizm doirasidan chiqib, ramziy va metaforik dunyolarga yo'l ochadi. Bu orqali yozuvchilar voqealarni oddiy haqiqatdan ajratib, ular orqali inson ruhiyati va ichki olamining chuqur darajalarini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Jahon va o'zbek adabiyotshunosligida "paranormal epizodlar" diniy-mifologik manbalar va xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan qahramonlar bilan bog'liqdir. Ular ilohiy haqiqatlarda, mifologiyada yoki folklor manbalarida aks etgan ramziy voqealar orqali tasvirlanadi. Bu esa "paranormal epizodlar"ning muhim poetik komponent ekanligi va poetik tafakkurning chuqur madaniy qatlamlarni aks ettirishida yordam beradi.

"Paranormal epizodlar" adabiyotda odatda insonning botiniy tasviri, ichki his-tuyg'ularini va insoniyatning sirli tomonlarini o'rganish uchun muhim vosita sifatida qo'llaniladi. Misol sifatida Nazar Eshonqulning "Qora kitob" asaridagi sirli va g'ayrioddiy voqealar orqali insoniyatning ma'naviy va ruhiy dunyosi tanazzuli Iblis qiyofasida aks ettirilganligini ta'kidlab o'tish joizdir. Muallifning e'tirof etishicha "Qora kitob" bu – o'zini anglash, o'zligini topish isyoni"dir. [Kh-davron.uz. Nazar Eshonqul. Og'riq lazzati] Modernist yozuvchi Nazar Eshonqulning "Qora kitob" qissasi adabiy jamoatchilikka tanish va zamonaviy o'zbek adabiyotida alohida e'tirof etiladigan asarlar sirasiga kiradi. Qissada inson ma'naviyati va o'zligini topish yo'lidagi anglash, shaxs kamoloti va tarbiyasi, inson taqdirida duch kelinadigan muhim nuqtalar kabi masalalar asarning bosh konsepsiyasini

belgilaydi. Shuningdek, asar g'oyasi butun insoniyat taqdirining ko'rinishi bir inson hayoti va u bosib o'tgan yo'l misolida aks etgan. Qissada asar qahramoning ismi noma'lum, va bu holat butun bani basharga tegishli ekanligini ifodalaydi.

Nazar Eshonqul asarlarida paranormal epizodlarning voqelanishi insonning ichki kechinmalari va falsafiy izlanishlari bilan bog'liq. Uning qahramonlari aksar hollarda hayotning sirli tomonlarini his qiluvchi, sezgir va o'zlikni anglashga intiluvchi insonlardir. Shuningdek, Nazar Eshonqul asarlarida inson va tabiat o'rtasidagi sirli aloqalar, ruhiy izlanishlar muhim o'rin tutadi. Qahramonlar o'z ongining cheksiz imkoniyatlarini his qilgan holda, sirli va paranormal holatlarga duch kelishadi. Bu hodisalar ularning ichki kechinmalari, ruhiy qiyinchiliklari bilan bog'liqlikda ifodalanadi. Misol uchun, Nazar Eshonqulning hikoyalari va qissalarida qahramonlar kutilmagan va tushuntirib bo'lmaydigan hodisalarga duch kelishadi, bu hodisalar ularning ruhiyatida o'ziga xos iz qoldiradi. G'ayritabiiy tushlar, ruhlar va hayot sirlarini izlash motivlari "Bahouddinning iti", "Maymun yetaklagan odam", "Tobut", "Ajr" hikoyalarida diniy va mistik miflarga aloqador bo'lgan sujetlarda o'z aksini topgan.

Nazar Eshonqulning o'ziga xos uslubi mistik va realizm o'rtasidagi o'tkir chegarani yo'qotadi. U asarlarida kundalik hayot voqealari bilan bir qatorda, tushuntirib bo'lmaydigan hodisalarni ham ifodalaydi. Bu uslub orqali yozuvchi real va mistik dunyo o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatadi. Masalan, qahramonlar oddiy va hayotiy muammolar bilan bir qatorda, noaniq va g'ayritabiiy voqealar bilan ham kurashadilar. Bu hodisalar ularning ichki dunyosini shakllantiradi va ular hayot haqidagi yangi tushunchalarni kashf qiladilar. Aynan mana shu jarayonlar "Qora kitob" qissasi bosh qahramoni hayotida ro'y beradi, personaj o'z "men"ini yo'qotgan, va besamar umri uchun achingan, eng og'ir gunoh bo'lsa-da (Iblisdan homilador bo'lgan qizini o'ldirishi) insoniyat uchun nafi tegadigan so'nggi ishni bajaradi va o'zining iqrori asarda quyidagicha aks etadi. "Odam sifatida odamzodga keltirgan zararlarim uchun, odamzod oldidagi gunohlarim uchun tazarru qilmoqchiman. Men ulug' gunohkorman..."[2:200-bet]

Nazar Eshonqulning "Qora kitob" asari o'zining chuqur falsafiy ma'nosi va inson ruhiyatining murakkab tomonlarini tadqiq qilishi bilan ajralib turadi. Asarda paranormal hodisalar to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilmasa ham, uning syujeti va obrazlari orqali insonning ichki kechinmalari, sirli va g'ayritabiiy his-tuyg'ularni o'quvchiga anglatishga imkon beradi. Asar mistik, falsafiy va ramziy qirralar bilan boyitilgan.

"Qora kitob" qissasi ramziy ma'noda inson bilimlari, tajribalari va ichki olamining qorong'i qirralarini o'rganishga urinadi. Bu asarda kitob g'ayritabiiy va o'qigan kishini o'ziga mahliyo qilib oladigan, shaytonning quroli sifatida tasvirlanadi. Bu ramzlar orqali inson ongining qorong'i va sirli tomonlari yoritiladi, bu esa paranormal hodisalarning ramziy ifodasi sifatida talqin qilinadi.

Nazar Eshonqulning "Qora kitob" asarida Iblis cho'qqi soqol qiyofasida tasvirlangan murakkab va chuqur falsafiy ma'noga ega bo'lgan obrazlardan biridir. Iblis faqat yovuzlikning timsoli sifatida emas, balki insoniyat va uning ichki olami bilan bog'liq ko'plab muammolarni ochib beradigan ramziy personaj sifatida talqin etiladi. Bu obraz orqali muallif jamiyat, axloq, va insonning ma'naviy kurashi haqidagi falsafiy savollarga javob izlaydi.

Iblis obrazining asosiy xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Iblisning ramziy ma'nosi: Asarda Iblis obrazi faqat yovuzlik yoki gunohni aks ettirmaydi. U insonning ichki olami, shubhalari, gumonlari, dunyoga bo'lgan ishonchsizligi

va iztiroblarining ifodasi sifatida ko'rinadi. Bu ramziy ifoda Iblisni insonning o'zidagi yovuzlikka moyilligini, uning zaifliklarini va ruhiy sinovlarini namoyon etish vositasi qilib ko'rsatadi.

2. Inson va Iblis o'rtasidagi qarama-qarshilik: Iblis va inson o'rtasidagi kurash asarda muhim markaziy mavzulardan biri bo'lib, insoniyatning yaxshi va yomon o'rtasidagi doimiy kurashini aks ettiradi. Bu kurash Odam Ato va Iblis kurashining ayni kundagi zamonaviy talqinidir. Bunda Iblis insonni adashtirish, yo'ldan ozdirish bilan emas, balki uni o'z ichidagi shubha va zulmat bilan yuzlashtirish orqali namoyon bo'ladi. Bu, asosan, insonning o'z xatosi, zaifliklari va ikkiyuzlamachilik bilan to'qnashishi sifatida talqin etilishi mumkin.

3. Iblisning falsafiy talqini: Asar orqali muallif Iblisning mohiyatini insonning axloqiy va ma'naviy mas'uliyatlari nuqtayi nazaridan yoritadi. Iblis odamzodning o'zligiga va hayotning ma'nosiga bo'lgan munosabatini shubha ostiga qo'yadi. Nazar Eshonqulning tasviricha, Iblis shunchaki shaytoniy qiyofada bo'lgan qahramon emas, balki insonning o'z-o'zi bilan ichki kurashi va dunyoqarashdagi noaniqliklarni aks ettiradigan timsoldir.

4. Iblis va insonning axloqiy sinovlari: Asarda Iblis insonni tashqi yovuz kuchlar bilan emas, balki uning o'zidagi axloqiy sinovlar va qarama-qarshiliklar bilan sinaydi. Bu esa Iblisni insonning ichidagi qorong'ilik va ma'nosiz hayotning ichki kurashini ifoda qiladigan obrazga aylantiradi. Iblis obrazining ushbu falsafiy qirralari o'quvchini insoniyatning o'zini anglash yo'lidagi cheksiz izlanishlari haqida fikrlashga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, Nazar Eshonqul - o'zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri bo'lib, uning asarlarida inson ruhiyati, ichki kechinmalar va tushunarsiz voqealar tasviri quyuq va qora bo'yoqlarda ifodalanadi. U o'z ijodida inson va olamning murakkab tomonlarini tadqiq qilib, sirli va g'ayritabiiy hodisalar orqali falsafiy fikrlarni mushohada qilishga chorlaydi. Aynan mana shu o'ziga xos uslubi va mahorati Nazar Eshonqul asarlarida paranormal hodisalarning aks etishiga zamin yaratadi. Shuningdek, Nazar Eshonqul ijodida "paranormal epizodlar" inson ruhiyati va ichki dunyosining murakkab tomonlarini ochib beruvchi vosita sanaladi. Yozuvchi o'z asarlarida ruhiy izlanish va sirli voqealar orqali inson va olamning murakkabligini tasvirlaydi. Ushbu hodisalar orqali u hayotning chuqur falsafiy masalalarini yoritib, insonning o'z-o'zini anglash jarayonini tavsiflaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Узоқ Жўрақулов. Алишер Навоий "Хамса"сида хронотоп поэтикаси Монография. Тошкент Турон-иқбол нашриёти. 2017 6-бет
2. Назар Эшонқул Қора китоб. Қисса. Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2008. 200-бет
3. Kh-davron.uz. Nazar Eshonqul. Og'riq lazzati
4. Андрей Юрьевич Долгих, Анна Павловна Корякина. Три взгляда на проблему паранормального. Научный ежегодник Института философии и права Уральского отделения Российской академии наук 2015. Том 15. Вып. 4, с. 25–40
5. Жўрақулов У. Худудсиз жилва. – Т.: "Фан", 2006. 155 – Б.